

ZAMONAVIY TIBBIYOT SOHASIDA XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHNING STRATEGIK AHAMIYATI: PROFESSIONAL KOMPETENSIYA VA GLOBAL INTEGRATSIYA TAHLILI

Otajonova Mubinaxon Azizjon qizi

Farg‘ona viloyati, Qo‘qon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy tibbiyot tizimida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini bilishning zarur ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda shifokorlarning xalqaro ilmiy ma‘lumotlar bazalari bilan ishlash ko‘nikmalari, xalqaro protokollarni o‘zlashtirish hamda bemorlar bilan samarali muloqot o‘rnatishda til kompetensiyalarining beqiyos o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada til to‘sig‘i (language barrier) ning tibbiy xatolarga ta‘siri va O‘zbekistonda tibbiy ta‘limni xalqarolashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tibbiy lingvistika, til to‘sig‘i (language barrier), global integratsiya, tibbiy terminologiya, dalillarga asoslangan tibbiyot (evidence-based medicine), professional kompetensiya, case study.*

Kirish

Zamonaviy tibbiyot nafaqat biologik va texnologik fanlar majmuasi, balki global miqyosdagi axborot almashinuvi jarayoni hamdir. XXI asrda malakali tibbiyot xodimi uchun xorijiy til, xususan, ingliz tili shunchaki qo‘shimcha mahorat emas, balki professional yondashuv omiliga aylandi. Dunyo bo‘ylab tibbiyotga oid yangiliklarning, yangi klinik tadqiqotlarning natijalari va innovatsion davolash protokollarining qariyb 95% dan ortig‘i aynan ingliz tilida e‘lon qilinishi, mahalliy mutaxassislardan ushbu tilni mukammal bilishni talab qilmoqda.

Ushbu maqolada til to‘sig‘ining tibbiy xatolar ehtimoliga ta‘siri, dalillarga asoslangan tibbiyot (evidence-based- medicine) tamoyillarini tadbiiq etishda xorijiy tilning o‘rni va O‘zbekiston Respublikasi tibbiyot ta‘lim tizimidagi transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashtirish jarayonida shifokorning til kompetensiyasi bevosita bemor xavfsizligi va davolash sifatiga ta‘sir etuvchi strategik omil hisoblanadi.

Asosiy qism

Tarixan tibbiyot tili lotin va grek tillari asosiga qurilgan bo‘lsada, XXI asrga kelib ingliz tili xalqaro tibbiyotning rasmiy muloqot va ilm-fan tiliga aylandi. Bugungi kunda lotin tili faqat anatomik organlar va dori nomlari (nomenklatura va terminologiya) uchun xizmat qilsa, ingliz tili ushbu terminlarni jonlantiruvchi va dunyo bo‘ylab harakatlantiruvchi asosiy manbadir.

Zamonaviy tibbiyot sohasida yangi paydo bo‘layotgan tushunchalar (masalan, Target therapy, Stem cell transplantation, Gene editing) bevosita ingliz tilida yaratilmoqda. Ushbu terminlarning boshqa tillarga tarjimasini ko‘p hollarda asl ma‘noni to‘liq ifodalamaydi. Shu sababli, ingliz tilini bilish shifokorga yangi tushunchalarni tezda anglash va tadbiiq etish

imkonini beradi. Ta’kidlash joizki, zamonaviy shifokor uchun faqat lotincha o’zaklarni bilish ma’lumotga ilk qadam qo’yish uchun yordam beradi holos. Masalan, lotincha “Cardia” o’zagini bilgan shifokor, ingliz tilidagi “Cardiology Guidelines” (Kardiologiya bo’yicha qo’llanmalar)ni o’qish orqali amaliyotdagi yangiliklardan xabardor bo’ladi. Ingliz tili – bu lotincha terminlarning global amaliyotdagi “jonli tili”dir. Shuningdek, shifokorning til bilish salohiyati uning xalqaro miqyosda o’z tajribasini oson tushuntira olishi bilan belgilanadi. Ingliz tili – bu shunchaki muloqot vositasi emas, balki shifokorning xalqaro konferensiyalarda ma’ruza qilishi, xorijiy hamkasblari bilan kasallik tarixini tahlil qilish (Case study) uchun asosiy imkoniyat vositasidir. Tibbiy lingvistika mutaxassislarining fikriga ko’ra, ingliz tili zamonaviy tibbiyotning operatsion tizimi kabidir. Lotin tili uning kodi bo’lsa, ingliz tili bu kodni butun dunyo shifokorlari tushunadigan interfeysga aylantiradi.

Zamonaviy shifokor uchun PubMed va Medscape kabi bazalar bilan ishlash kundalik ehtiyojdir. Hozirgi kunda tibbiyot sohasidagi eng so’nggi kashfiyotlar, klinik sinovlar va yangi dori vositalar haqida ma’lumot birinchi navbatda PubMed (National Library Medicine) bazasida e’lon qilinadi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, PubMed bazasidagi maqolalarning 80% dan ortig’i faqat ingliz tilida indekslanadi. Shifokorning xorijiy tilni bilmasligi esa uni “axborot blokadi” ga tushurib qo’yadi. Masalan, PubMed da biror kasallikni davolash bo’yicha eng so’nggi “Meta-analysis” yoki “Systemetic review” larni o’qish uchun tibbiyot xodimi ingliz tilini mukammal bilishi va maxsus akademik terminologiyadan ham bevosita xabardor bo’lishi maqsadga muvofiq. Shu jumladan aytish joizki, har kuni PubMed ga 2000 dan ortiq yangi maqola qo’shiladi. Ularning ko’p qismi xalqaro til – ingliz tilida. Shuningdek, PubMed dagi har bir ilmiy maqolada ish joyi (Affiliation) va mas’ul muallif (Corresponding author) bo’limi mavjud. Agar O’zbekistonlik shifokor murakkab klinik holatga duch kelsa, u PubMed orqali ushbu sohada eng so’nggi tadqiqot o’tkazgan dunyo olimining elektron pochta-sini topishi va u bilan professional muloqotga kirishishi mumkin. Biroq, bu imkoniyatdan yetarlicha foydalanish uchun tibbiy ingliz tili (Medical English) ni professional darajada bilish talab qilinadi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, shifokor va bemor o’rtasidagi tushunmovchilik ko’pincha til to’sig’i tufayli yuzaga keladi. Bu esa o’z navbatida noto’g’ri muloqot va terminlarni noto’g’ri talqin qilish oqibatida kelib chiqadigan klinik xatolar umumiy o’lim holatining sezilarli qismini tashkil etishi mumkin. Masalan, xalqaro simpoziumlarda yoki chet el shifokorlari bilan onlayn konsilium paytida ingliz tilini yaxshi bilish diagnostika aniqligini 40% ga oshiradi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, chet tilini bilish darajasi shifokorning nafaqat nazariy bilimiga, balki uning kundalik samaradorligiga ham bevosita ta’sir ko’rsatadi. Quyida beriladigan qiyosiy jadvalda xorijiy til, xususan, ingliz tili kompetensiyasiga ega bo’lgan va ega bo’lmagan mutaxassisning kasbiy imkoniyatlari o’rtasidagi umumiy farqlar tizimlashtirilgan.

1-jadval. Shifokor faoliyatida til kompetensiyasining qiyosiy tahlili.

<i>Faoliyat yo`nalishi</i>	<i>Til bilmaydigan shifokor</i>	<i>Til biladigan shifokor(B2-C1)</i>
<i>Ma'lumot manbai</i>	<i>Faqat mahalliy darsliklar</i>	<i>PubMed, Scopus, Cochrane Library</i>
<i>Xalqaro hamkorlik</i>	<i>Imkonsiz</i>	<i>Onlayn konsilium va konferensiyalar</i>
<i>Karyera o`shishi</i>	<i>Cheklangan</i>	<i>Xalqaro grantlar va chet elda malaka oshirish</i>
<i>Davolash usuli</i>	<i>Eskirgan uslublar</i>	<i>So`nggi xalqaro protokollar. (Guideline)</i>

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, til bilish darajasi shifokorning global axborot maydonidagi o`rnini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Xulosa

O`tkazilgan tahlillar va o`rganilgan manbalar shuni ko`rsatadiki, zamonaviy tibbiyotda xorijiy til, xususan ingliz tili shunchaki muloqot vositasi emas, balki shifokorning professional salohiyatini belgilovchi strategik resursdir. Lotin tili tibbiyotning fundamental poydevorini saqlab qolsa-da, ingliz tili uning dinamik rivojlanishini, PubMed kabi global bazalar orqali bilimlar almashinuvini va “Dalillarga asoslangan tibbiyot” (Evidence-based medicine) tamoyillarining hayotga tadbiiq etilishini ta`minlamoqda. Xulosa o`rnida ta`kidlash lozimki, O`zbekistonda tibbiy ta`limni transformatsiya qilish jarayonida chet tillarini o`qitishni klinik fanlar bilan integratsiya qilish va bo`lajak shifokorlarda raqamli ilmiy bazalar bilan ishlash ko`nikmasini shakllantirish davlat ahamiyatiga molik vazifadir. Zero, til bilgan shifokor – dunyo bilan muloqot qila oladigan, raqobatbardosh mutaxassisdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987) English for specific Purposes: A learning-centered approach. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Ferguson, G. (2013). English for Medical Purposes. In B. Paltridge & S. Starfield (Eds.), The handbook of English for Specific Purposes (pp. 243-261). Wiley-blackwell.
3. Madjayeva, S.I (2020). Медицинская терминология в глобализированном мире. Москва: Наука.
4. Axmedova, L. T. (2021). O`zbekiston tibbiyot oliy o`quv yurtlarida chet tillarini o`qitishning zamonaviy usullari va muammolari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
5. National Center for Biotechnology Information (NCBI). (2025). PubMed User Guide: Searching with MeSH. Retrieved from <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/help/>.



6. Gotti, M., & Salager-Meyer, F. (2006). *Advances in Medical Discourse Analysis: Oral and Written Contexts*. Bern: Peter Lang Publishing.
7. World Health Organization (WHO). (2024). *Communicating for Better Health Outcomes: Global Standards*. Geneva: WHO Press.
8. Falagas, M. E., Pitsouni, E. I., Malietzis, G. A., & Pappas, G. (2008). Comparison of PubMed, Scopus, Web of Science, and Google Scholar: Strengths and weaknesses. *The FASEB Journal*, 22(2), 338-342.
9. Beylinson, L. S. (2019). *Характеристики медицинского дискурса*. Волгоград.
10. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. (2020). Toshkent: Adolat.